

## *O'quv dasturi*

**“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”  
turkumiga kiruvchi fanlardan umumiyl o'rta ta'lif  
mabtabining o'quv dasturi**

**(Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas  
kuch” kitobining mazmunini singdirish asosida)**

### **Odobnoma (1-4-sinf)**

#### **UQTIRISH XATI**

“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar dasturlarining birinchi bosqichida, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan “Odobnoma” fani hisoblanadi. Ushbu fan 1-4 sinflar kesimida har bir sinfda 34 soat jami 135 soat o'qitiladi.

“Odobnoma” fanining maqsad va vazifasi yosh avlod qalbiga milliy va umumbashariy qadriyatlar asosidagi odob-axloq me'yorlarini singdirishdan iborat.

“Odobnoma” darslari o'quvchilarda milliy mafkuramizning asosi bo'lgan axloq-odob me'yorlarining dastlabki tushunchalari, umuminsoniy qadriyatlarning dastlabki ko'nikmalarini shakllantirish va ularni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tushunchalar xalq og'zaki ijodi, ibratli rivoyatlar, maqollar, taniqli adiblarning kichik hikoyalari, she'rlari orqali shakllantiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida”gi F-1322-sonli farmoyishi asosida “Konstitutsiya alibosi” kursi “Odobnoma” fani tarkibiga singdirib o'qitiladi.

#### **“Odobnoma” (1-4-sinf)**

##### **1-sinf**

###### **I bo'lim. O'zbekiston – ozod va obod diyor.**

1-dars: 1-sentabr – Mustaqillik kuni (1 soat).

1-sentabr Mustaqillik kuni yurtimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi haqida. Mustaqillikka oid she'r va qo'shiqlar. Davlat ramzlariga ehtirom.

###### **2-3 dars: Bobolardan meros yurt (2 soat).**

Vatan mehri.

O'zbekiston jannat yurt.

## *O'quv dasturi*

### **31-32-dars: Yuksak ma'naviyat – buyuk jasoratga yetaklaydi (2 soat).**

Jasorat ko'rsatish imkoniyatining doimo mavjudligi. Har kuni, har soatda fidoiy bo'lish, o'z imkoniyatlarini yurt ravnaqi uchun safarbar qilish haqiqiy qahramonlik ekanligi.

Yoshlarning ma'naviy uyg'oqligi millatni asraydigan asosiy omillardan biri ekanligi.

Yuksak ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir. Jamiyatning madaniyatsiz, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmasligi..

### **33-dars: Nazorat ishi (1 soat)**

### **34-dars: Umumlashtiruvchi dars (1 soat).**

## *O'quv dasturi*

### **4-dars: Vatan bo'ylab sayohat (1 soat).**

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva – eng qadimgi shaharlarimizdan.

### **5-6-dars: Oila – baxt qo'rg'oni (2 soat).**

Oilada doimo mehr hukmron bo'lishi.

Mehr tarbiyasi, insonga xos ezgu tuyg'ularning aynan oilada shakllanishi.

Mening oilam. Oilaviy an'analar.

### **7-dars: Takrorlash (1 soat).**

#### **II bo'lim. Odob – inson uchun oftob**

### **8-9 dars: Odob – salomdan boshlanadi (2 soat).**

Salomlashishning o'ziga xos xususiyatlari.

Kim birinchi salom berishi kerak?

Salomlashishning o'ziga xos qoidalari.

Odob – go'zallik ramzi.

### **10 -13 dars: Odob – insonning husni (4 soat ).**

O'quvchining odobi.

Maktab qoidalari.

Kiyinish odobi.

Kattaga hurmatda-kichikka izzatda bo'lish.

Dasturxon atrofida o'tirish va ovqatlanish odobi.

### **14- 18 dars: Insonni ulug'laydigan fazilatlar (5 soat)**

Yigit degan mard bo'lur.

Qizlar fazilati – hayo va ibo.

Azmu shijoat o'qishda ham, ishda ham kerak.

Rostgo'ylik va yolg'onchilik.

Kamtarlik va manmanlik.

### **19-21 dars: Ilm va hunarning xosiyati (3 soat).**

Ilm va hunar turlari.

Ilm xosiyati haqida donolar o'gitlari.

## *O'quv dasturi*

Hunarli kishi xor bo'lmas.  
Kim bo'lsam ekan?  
Har kasbning o'z xislati bor.

### **22-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **23-25-dars: Salomatlik – tuman boylik (3 soat).**

Salomatlik – inson boyligi.  
Barvaqt uyqudan turishning xosiyati.  
Salomatlikni mustahkamlashda jismoniy tarbiyaning o'rni.  
Kun tartibini to'g'ri taqsimlash.

### **26-dars: Takrorlash (1 soat).**

### **27- 28-dars: Milliy o'yinlar (2 soat).**

Mavsumiy o'yinlar “Oq terakmi, ko'k terak”, “Quyonim-quyonim, nima bo'ldi?”, “Mushuk-sichqon”, “Xola-xola”. “Kim chaqqon?”, “Tez aytish”.

O'yin qoidalari nima uchun kerak?  
Milliy o'yinchoqlar. Bolalar qo'g'irchoq teatri

### **29-dars: Xotira va qadrlash kuni (1 soat).**

9-may – Xotira va qadrlash kuni. Ziyorat qilish odobi.

### **30-31-dars: Ona tabiat bag'rida (2 soat).**

Tabiat mo'jizalari. Suv – hayot manbai.  
Hayvonot olamiga sayohat. Jonivorlarga g'amxo'rlik.  
Atrof-muhitga oqilona munosabat.

### **32-dars: Takrorlash (1 soat).**

### **33-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

## **2- sinf**

### **I bo'lim. Bizning Vatanimiz – O'zbekiston**

### **1-dars: O'zbekiston – buyuk allomalar yurti.. (1 soat).**

Bizning Vatanimiz – O'zbekiston. Toshkent – O'zbekiston poytaxti.  
Konstitutsiyamiz – asosiy qonunimiz.

## *O'quv dasturi*

### **2-4-dars: Ajdodlar merosi – faxr va iftixorimiz (3 soat).**

O'zbek xalqining ma'naviy boyligi. Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros.

Yurtimizdagи ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar.

Ajdodlar merosini o'rganishda rivoyat va ertaklarning o'rni

Kitob o'qish va undan foydalanish madaniyati. Kitob – mening do'stim.

### **5-dars: Takrorlash (1 soat).**

### **6-7-dars: Ota-onा – aziz va mo'tabar (2 soat).**

Vatan oiladan boshlanadi. Ota-onaga, oila a'zolariga bo'lgan hurmat odobi. Ota - onani qadrlash va ularga g'amho'rlik qilish.

Kattalar mehnatini qadrlash.

### **8-dars: Yozma ish (1 soat).**

## **II bo'lim. Odob kishining zebu ziynati**

### **9-10-dars: So'zlashish odobi (2 soat).**

Odob bilan, yoqimli so'zlashish, shirin so'zli bo'lism.

Shirin so'z – jon ozig'i.

So'z sehri. Telefonda gaplashish odobi.

Yolg'onning umri qisqa.

### **11-14-dars: Yaxshi fazilat – insonga ziynat (4 soat)**

Sabr qilgan yetar murodga. Sabrli insonning ishida unum bo'lishi. Saxiylikning hikmati. Saxiylik – fazilat, xasislik – illat.

Kamtarlik.

O'z-o'ziga xizmat qilish odobi

### **15-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **16-18-dars: Mehmono'stlik – yaxshi odat (3 soat)**

Mehmono'stlik, mehmon kutish, mehmonga borish va kiyinish odobi.

Dasturxon bezatish odobi.

## *O'quv dasturi*

Dasturxon atrofida o'zini tutish qoidalari (qo'shiq, pichoq, sanchqi va sochiqlardan foydalanish odobi).

**19-dars: “Mehmon-mehmon” o'yini (1 soat).**  
Amaliy mashg'ulot.

**20-dars: Yozma ish (1 soat).**

**21-24-dars: Do'stlikni qadrlang (4 soat).**

Do'stlashish odobi.

Do'st tanlash va tanishuv qoidalari. Do'st bo'lish osonmi?

Barcha millat va elatlar do'st va birodardirlar.

Do'stlik millat tanlamaydi.

**25-27-dars: Tadbirli va tartibli bo'ling (3 soat).**

Jamoat joyida, ko'chada, kino, teatr, muzey va istirohat bog'ida o'zini tutish.

Mulk haqida tushunchalar. Dam olish, sog'liqni saqlash, bilim olish huquqlari.

**28-dars: Sog'liging - boyliging (1 soat).**

Kun tartibiga rioya qilishning hikmati.

**29-dars: Takrorlash (1 soat).**

**30-31-dars: Quvonchli kunlarni nishonlash (2 soat).**

Vatanimizda nishonlanadigan milliy bayramlar. Urf-odatlar.

Oilaviy tadbirlar, tug'ilgan kun va boshqa tantanali marosimlar.

Xotira va qadrlash kuni

**32-dars: Ona tabiat (1 soat).**

Tabiat in'omlari va ularni asrash. “Qizil kiob”ga kiritilgan hayvonot va o'simliklar turlari.

Tabiat qo'yinda dam olish odobi.

**33-dars: Umumlashtiruvchi dars (1 soat).**

**34-dars: Takrorlash (1 soat).**

## *O'quv dasturi*

### **3-sinf**

#### **I bo'lim. Vatan muqaddas**

##### **1-3-dars: O'zbekiston - Mustaqil davlat (3 soat).**

O'zbekiston Respublikasi – Mustaqil davlat. Islom Karimov – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti. Konstitutsiyamizda bolalar huquqi.

Men O'zbekiston Respublikasi fuqarosiman.

##### **4-6-dars: Ona yurting – oltin beshiging (3 soat).**

Vatan muqaddas. Vataning – onang.

Vatanni sevish nima?

Vatanimizdagи tarixiy obidalar – Registon, Ichan qal'a, Minorai Kalon, Hazrati Imom, Imom Buxoriy majmualari haqida.

##### **7-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

##### **8-dars: Takrorlash (1 soat).**

#### **II bo'lim. Inson go'zalligi axloq-odob bilan.**

##### **9-10-dars: Bolalik – beg'uborlik, keksalik – donolik (2 soat).**

Bolalik – beg'uborlik, keksalik – donolik.

Keksalarni ardoqlaylik.

Bola huquqlari. “Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi qonun haqida.

##### **11-13-dars: Donolar o'gitlari (3 soat).**

Hadis haqida tushuncha. Muqaddas kitoblarda bolalar odobi haqida.

Donolar odob-axloq, do'stlik haqida.

Saxiylik va baxillik haqidagi o'gitlar. Sovg'a berish va sovg'a olish odobi.

##### **14-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

##### **15-dars: Takrorlash (1 soat).**

##### **16-17-dars: Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylig (2 soat).**

Mehnat inson hayotini bezaydi.

Kasblar olami. Podshoning hunar o'rgangani haqida ertak.

## *O'quv dasturi*

### **18-20-dars: Sog' tanda - sog'lom aql (3 soat).**

Orastalik – inson ko'rki. Orastalik qoidalari.

Tozalik – sog'lik garovi.

Ozodalik va saranjomlik.

### **21-23 -dars: Tejamkorlik (3 soat).**

Bobolarimiz tejamkorlik haqida. Tejamli bola – bejamli bola.

Nonning ushog'i ham – non.

Suv – hayot manbai.

### **24-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **25-dars: Takrorlash (1 soat).**

### **26-29-dars: Tabiat - go'zallik ramzi (4 soat).**

Biz yashayotgan olam.

Men – tabiatni qanday asrashim mumkin.

Hayvonlar bilan munosabat. O'zbekistondagi qo'riqxonalar

Tabiat qo'yniga sayohat.

### **30-31-dars: Rivoyatlardagi hikmatlar (2 soat).**

Rivoyatlar tariximizdan so'zlaydi. Navro'z haqida rivoyat. Sumalak haqida rivoyat.

### **32-dars: Xalq o'yinlari (1 soat).**

O'yin odobi. Harakatli o'yinlar – sog'lik garovi. Tez fikrlash, chaqqonlik musobaqlari.

### **33-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **34-dars: Umumlashtiruvchi dars (1 soat).**

#### **4-sinf**

I bob. O'zbekiston – madaniy va ma'nnaviy meroslarga boy o'lka.

### **1-3-dars: O'zbekiston – ona diyor (3 soat).**

O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat.

## *O'quv dasturi*

Yurt – tinchligi, el – boyligi.

Barcha millatlar teng huquqli, do'st-birodardirlar.

### **4-7-dars: O'zlikni anglash (4 soat).**

Ajodolarimiz ardoqlagan qadriyatlar.

O'zbekiston – madaniy va ma'naviy meroslarga boy o'lka.

Davlat tili. Tilga e'tibor – elga e'tibor.

Mustaqillik yillarda tiklangan tarixiy obidalar, yodgorliklar. Farg'oniy, Marg'inoniy, "Algomish", "Avesto" monumentlari.

### **8-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **9-dars: Takrorlash (1 soat).**

### **10-13-dars: Merosimiz – faxrimiz (4 soat).**

Amaliy san'at turlari (xalq hunarmandchiligi: kulolchilik, milliy liboslar, ganch va yog'och o'ymakorligi, chilangarlik, zargarlik).

Yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari. Oilaviy an'analar.

Musiqaning inson hayotidagi o'rni. Cholg'u asboblari.

Mamlakatimiz hududlarida qo'shiqchilik san'atining o'ziga xosligi. Musiqa va qo'shiqning inson ruhiyatiga ta'siri.

### **14-16-dars: Konstitutsiyamiz - baxtimiz poydevori (3 soat).**

Konstitutsiya – Asosiy qonun. Bolalar huquqlarining ta'minlanishi.

Bizning huquq va burchlarimiz. Qonun, qoida. Tartib tushunchalari.

Davlatni kim boshqaradi?

### **17-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **18-dars: Takrorlash (1 soat).**

### **19-20-dars: Vatanimiz posbonlari (2 soat).**

Yurt tinchligi uchun barchamiz mas'ulmiz.

Bizning armiya. Biz Vatanning bo'lg'usi posbonlarimiz.

Vatan oldidagi burch va sadoqat.

### **21-22-dars: Bizning sog'ligimiz – mamlakatimiz boyligi (2 soat).**

Sog'lom turmush tarzi. Odam va uning sog'ligi.

Onalik va bolalik davlat muhofazasida.

## *O'quv dasturi*

**23-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

**24-26-dars: Kasblar olamiga sayohat (3 soat).**

Hunarning yomoni bo'lmaydi. Hunarli unar.  
Kasblarning o'ziga xos xususiyatlari.  
Mehnat qilish va kasb tanlash huquqi.

**27-dars: Amaliy mashg'ulot (1 soat).**

Kim bo'lsam ekan?

**II bob. Ezgulik – komillikka yetaklaydi.**

**28-29-dars: Ezgu fazilatlar – inson ko'rki (2 soat).**

Yaxshilikka yaxshilik – barchaning ishi, yomonlikka yaxshilik – mardning ishi. Ezgulik – komillikka yetaklaydi.

Insonning dunyoqarashi uning ma'naviyatini belgilaydi.

**30-dars: Sehrli so'zlar (1 soat).**

So'zning kuchi. Tig' bilan yetkazilgan jarohat - til bilan yetkazilgan jarohatdan ko'ra yengil.

**31-dars: Imoratlar ichida eng ulug'i...**

Maktab – eng ulug' dargoh. Oz bo'lsa ham bilmox uchun ko'p o'qimoq kerak. O'qishsiz haqiqiy bilim bo'lmaydi.

**32-dars: Axloq-odob qoidalari (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot

**33-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

**34-dars: Takrorlash, umumlashtiruvchi dars (1 soat).**

**«Vatan tuyg'usi» fani bo'yicha o'quv dasturi  
(5-6 – sinflar)  
Uqtirish xati**

«Vatan tuyg'usi» fanining maqsadi, avvalo, yosh avlod qalbi va ongida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, Vatan, ona

## *O'quv dasturi*

yurt, xalq va millat, milliy qadriyatlar haqidagi bilim va tushunchalarni mustahkamlash, o'quvchilarda mardlik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish, milliy iftixor tuyg'usini kamol toptirish, o'quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishiga xizmat qilishdan iborat.

Bu fanni o'qitishda quyidagi tamoyillarni inobatga olish zarur:

- milliy g'oya asosidagi yangicha dunyoqarashni shakllantirish ta'limgizimidagi izchil va uzlusiz jarayon ekani;
- milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi.
- «Vatan tuyg'usi» fani 5-6 sinfda 68 soat o'qitiladi.

### **“Vatan tuyg'usi”**

**5-sinf**

#### **I bob. Vatanni sevmoq immondandir**

##### **1-2 -dars: Mustaqil O'zbekiston, Seni tanidi jahon! (2 soat).**

O'zbekiston jahon xaritasida. Mustaqillik – eng oliv va eng bebahone'mat. Islom Karimov – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti. Islom Karimovning ma'naviy jasorati.

##### **3-4-dars: Vatan nima? (2 soat).**

Vatan – inson tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan joy. Vatan – ajdodlarimiz yashab o'tgan muqaddas tuproq, bizlar yashaydigan tabarruk zamin.

##### **5-6-dars: O'zbekiston xalqi (2 soat).**

Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik tushunchalari. O'zbekistonda vijdon erkinligi. O'zbekiston xalqining xohish-irodasi – davlat hokimiyatining asosiy manbai.

##### **7-dars: Qadimiy shaharlarimiz yasharmoqda (1 soat).**

Yurtimizning qadimiy va navqiron shaharlari. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon, Termiz.

Go'zal vodiylar, viloyatlar – barchasi g'urur-iftixor manbai

##### **8-dars: Shaharsozlik (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot.

## *O'quv dasturi*

### **9-dars: Takrorlash (1 soat).**

#### **II bob. Oila – kichik Vatan**

##### **10-11-dars: Oila – Vatan timsoli (2 soat).**

Oila – tarbiya o'chog'i. Biz kimmiz? Kimlarning avlodimiz? Kimlarga o'xshashimiz kerak? Inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri

##### **12-13-dars: Oila va Vatan tuyg'usi (2 soat).**

"Ona Vatan", "Ona tabiat", "Ona yurt" iboralarining o'zaro bog'liqligi. Insonning eng pokiza tuyg'ulari oilada shakllanadi.

Mustaqillik yillarda oilaga e'tibor ortganligi. Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida oila haqida.

### **14-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

#### **III bob. Mahalla – qadriyatlar beshigi.**

##### **15-16-dars: Ma'naviy hayotimizda mahallaning o'rni (2 soat).**

Vatan ostonadan boshlanadi. Vatan oldidagi burch. O'z uyingni – o'zing asra. Mahalla – qadriyatlar beshigi. Obod mahalla obod ko'ngildan boshlanadi.

##### **17-dars: Mening mahallamda yashash yaxshi (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot

#### **IV bob. Ajdodlarga munosib avlod bo'laylik.**

##### **18-19-dars: Vatanparvarlik (2 soat).**

Vatanparvar insonning milliy g'ururi va iftixori yuksak bo'ladi. Vatan tuyg'usi nima? Vatan tuyg'usi – vatanparvarlik fazilatlariga asos.

Shiroq jasorati. To'maris, Muqanna, Jaloliddin Manguberdining vatanparvarligi.

##### **20-21-dars: Barkamol avlod – Vatan kelajagi (2 soat).**

O'zbekistonda yosh avlodga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik. Vatanimizda bolalar uchun yaratilgan imkoniyat va shart-sharoitlar. Vatan tinchligi va osoyishtaligi – farovon hayotimiz garovi.

### **22-dars: Takrorlash (1 soat).**

## *O'quv dasturi*

**V bob. Mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy rivoji.**

**23-24-dars: Yurtimizning moddiy va ma'naviy boyliklari (2 soat).**

Vatanni sevgan kishi uning qadriga yetadi. Vatanning moddiy va ma'naviy boyliklari, uning qadr-qimmati. Vatan ravnaqi farzandlarning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bog'liq.

**25-26-dars: Xalqni Vatan manfaati birlashtiradi (2 soat).**

Xalqni Vatan manfaati birlashtiradi. Islohotlar inson uchun, uning manfaatlari uchun xizmat qilmoqda.

**27-dars: Iqtisodiy islohotlar Vatan ravnaqi yo'lida (1 soat).**

O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati, saxovatli va mehnatkash xalqi.

O'zbekistonda avtomobil sanoatining rivojlanishi. Jahon bozorida O'zbekistonning o'rni.

**28-dars: O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot.

**29-31-dars: Mamlakat rivojining ma'naviy-axloqiy negizi (3 soat).**

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.

Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi.

**32-dars: Milliy bayramlar, urf-odatlar (1soat).**

Amaliy mashg'ulot.

**33-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

**34-dars: Umumlashtiruvchi, yakuniy dars (1 soat).**

### **“Vatan tuyg'usi” 6-sinf**

**I bob. Mustaqillik – ma'naviy imkoniyatlar manbai.**

**1-2-dars: Mustaqillik – ma'naviy tiklanish va yuksalish (2 soat)**

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi. Milliy qadriyatlarimizning tiklanishi. Mustaqillik – oliv ne'mat. Mustaqillik – ma'naviy imkoniyatlar manbai.

## *O'quv dasturi*

### **3-dars: Bu dunyoda mamlakat ko'p, lekin ona yurtimiz O'zbekiston yagona (1 soat).**

Vatanni anglash. Vatan ostonadan boshlanadi. Vatan muqaddasdir.

### **4-5-dars: O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat (2 soat).**

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tili, urf-odat va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

### **6-dars: Shoirlar ijodida millat ta'rifi (1 soat).**

Erkin Vohidovning "O'zbegim" qasidasi asosida suhbat.  
Amaliy mashg'ulot.

### **7-dars: Takrorlash (1 soat).**

#### **II bob. Xalqimiz – buyuk ma'naviyat egasi.**

### **8-9-dars: Tarix – ma'naviyat uchun poydevor (2 soat).**

O'zlikni anglashda tarixning o'rni.

Qadimiylar tarixiy yodgorliklar – ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlardan biri.

"Avesto" – bebahoh ma'naviyboylik sifatida.

Xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi "Alpomish" dostoni haqida. qadimiylar va shonli tariximiz bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti.

Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida tarixiy xotira haqida.

### **10-dars: O'zlikni anglashda milliy qadriyatlarning o'rni (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot:

### **11-12-dars: Ma'naviyatni anglash (2 soat).**

Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ma'naviyat insonni ruhan poklaydi. Ma'naviyat – insonning vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch. Xalqimiz – buyuk ma'naviyat egasi.

## *O'quv dasturi*

Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak.

### **13-14-dars: Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyati ravnaqiga qo'shgan hissasi (2 soat).**

Buyuk mutafakkir ajdodlarimiz va islom madaniyati.

Toshkentning Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi .

### **15-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **16-18-dars: Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir (3 soat).**

Yurtdoshimiz Muso Xorazmiyning algebra faniga asos solishi.

Oydagi kraterlardan ikkitasiga buyuk vatandoshlarimiz – Ahmad Farg'oniy va Mirzo Ulug'bekning nomi berilgani.

Abu Nasr Forobiya "Muallim-us-soniy", Abu Ali ibn Sinoga "Shayx ur-rais" unvonining berilishi, XI asrning Beruniy asri deb nomlanishi. Umrboqiy zakovat nuri – Ma'mun akademiyasi.

### **19-20-dars: Buyuklik timsoli (2 soat).**

Amir Temur – buyuk davlat asoschisi. Amir Temurning madaniyat va din ahllariga ko'rsatgan cheksiz mehr-muruvvati.

Temur shaxsiga munosabatning o'zgarishi. Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temur – xalqimiz dahosi va ma'naviy qudratimiz ramzidir.

### **21-dars: Shoirlarning sultonı – Alisher Navoiy (1 soat).**

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zot – Alisher Navoiy haqida.

Navoiyning beباھو merosi. Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida Alisher Navoiy haqidagi fikrlari.

### **22-dars: Til – ma'naviyat ko'zgusi (1 soat).**

O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi. Avlodlar o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Davlat tili to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni.

## *O'quv dasturi*

Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida tilning millat ma’naviyatidagi o’rni haqida.

**23-dars: Tildagi mo’jiza – dildagi mo’jiza (1 soat).**  
Amaliy mashg’ulot.

**24-25-dars: Inson qalbiga yo’l (2 soat).**  
Dunyo imoratlari ichida eng ulug’i – maktab. Kasblarning ichida eng sharaflisi o’qituvchilik va murabbiyligidir.

Yoshlarning ma’naviy kamoloti – jamiyat va xalq qudratini ta’minlovchi muhim omil ekani.

Ta’lim olish huquqining kafolatlanishi.

**26-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

**27-28-dars: Ma’naviyatni yuksaltirishda madaniyat va san’atning o’rni (2 soat).**

Teatr va san’atda milliylik. Kino san’atining rivojlanishi. “Teatr – bu ibratxonadir”

Musiqa festivallari – millatlararo totuvlik manbai. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Nihol” va boshqa tanlovlardan hamda ulardan ko’zlangan maqsadlar.

**29-dars: Kitob – ma’naviyat manbai (1 soat).**  
Amaliy mashg’ulot.

**30-31-dars: Sog’lomlik va komillik (2 soat).**

Ruhiy va jismoniy sog’lomlik. Sog’lom farzand – jamiyat boyligi.

Komillik – insoniyat orzusi. Barkamol insonga xos xislatlardan O’zbekistonda sog’lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun qilinayotgan ishlari.

Prezident Islom Karimovning barkamol avlod haqidagi fikrlari.

**32-dars: Tinchlik uchun kurashmoq kerak (1 soat).**

Insonning eng ustivor va muqaddas huquqlaridan biri – bu tinch yashash huquqidir. O’z uyingni o’zing asra, o’z yurtingni o’zing himoya qil!

## *O'quv dasturi*

Milliy qadriyat va an'analarimizga yot bo'lgan odatlar. Ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.

### **33-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **34-dars: Takrorlash (1 soat).**

### **Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari 7-9-sinf Uqtirish xati**

Ushbu dasturda belgilangan mavzular orqali o'quvchilar ongi va qalbiga xalqimizning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida Vatan, xalqning buguni, kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rmini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, jamiyatni ji pslashtiradigan, istiqbolgasafarbar etishga qodir bo'lgan milliy g'oya, yuksak ma'naviyat tamoyillari singdiriladi.

Mavzular davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni oddiydan murakkablik tamoyiliga asoslangan holda, 7-8-9 sinflar kesimida 34 soatdan (jami 102 soat) o'qitiladi.

### **“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” 7-sinf**

**I bob. Millatning, xalqning hamjihatligi – taraqqiyot garovidir.**

### **1-2-dars: Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat qiladi (2 soat).**

Mustaqil O'zbekiston hayotida milliy g'oyaning tutgan o'rni. Millatning, xalqning – hamjihatligi taraqqiyot garovidir.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi.

Mafkura nima?

### **3-dars: G'oya nima? (1 soat).**

Fikr, fikrlar turi, fikrning g'oyaga aylanishi. Shaxsiy va ijtimoiy fikr. G'oya - inson tafakkuri mahsuli. G'oyaning ijtimoiy xarakteri.

## *O'quv dasturi*

### **4-5-dars: G'oyaning asosiy xususiyati va turlari. (2 soat)**

G'oyaning asosiy xususiyatlari. G'oyaning xususiyat jihatidan turlari – bunyodkor va buzg'unchi g'oyalalar. G'oyaning turlari – milliy, umumbashariy, diniy, ilmiy, dunyoviy, falsafiy.

### **6-7-8-dars: G'oyaga qarshi – g'oya, fikrga qarshi – fikr, jaholatga qarshi – ma'rifat (3 soat).**

G'oyalarning jamiyat rivojlanishida tutgan o'rni.

Bunyodkor g'oyalalar jamiyat rivojlanishining asosi ekanligi. Xalqimiz tarixida rivojlanishga asos bo'lgan g'oyalalar. Zardushtiylikning "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" haqidagi g'oyalalar.

Buzg'unchi g'oyalarning asosiy belgilari. Fashizm va aqidaparastlikka asos bo'lgan g'ayriinsoniy g'oyalalar va ularning zararli oqibatlari. Ularga qarshi kurash yo'llari.

### **9-dars: G'oyaga qarshi – g'oya , fikrga qarshi – fikr, jaholatga qarshi – ma'rifat bilan kurashmoq kerak (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot

### **10-dars: Takrorlash (1 soat).**

**II bob. Ma'naviyat – insonning barcha qarashlarining mezonidir.**

### **11-dars: O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari (1 soat).**

O'zbekistonni yangilanish va rivojlantirishning o'z yo'lli.

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik.

### **12-dars: Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni (1 soat).**

Ma'naviyatning mohiyati. Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, qadimiy tarixiy yodgorliklar.

### **13-14-dars: Ma'naviy meros (2 soat).**

Qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sifatida.

## *O'quv dasturi*

Buyuk Vatandoshlarimiz Imom Buxoriy, Iso Termiziyy, Imom Moturidiy, Marg'inoniy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamaxshariylar qoldirgan ulkan ma'naviy meros.

### **15-16-dars: Milliy an'ana va qadriyatlar ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi (2 soat).**

Mustaqillik yillarda milliy an'ana va qadriyatlarimizning tiklanishi. Navro'z bayrami, Ramazon va Qurban hayitlarining nishonlanishi. Diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligining kafolatlari.

Millatlararo totuvlik va fuqarolar birligi tushunchasi.

### **17-dars: Tarixiy yodgorliklar (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot.

### **18-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **19-dars: Ma'naviy tahdidlar (1 soat).**

Globallashuv jarayonlari. Ma'naviyatga qaratilgan har qanday tahdid o'zligimizga qaratilgan tahdid ekanligi. Inson qalbi va ongi uchun kurash. Bugungi kunda mafkuraviy tahdidning shakllari: axloqsizlik, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, terrorizm va b.

Ma'naviyatning qudratli kuchi.

### **20-dars: Shaxs tarbiysi – davlat siyosatining ustuvor sohasi (1 soat).**

Komil inson tarbiyasining dolzarbliji. Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifatdir. Bilimdonlik – ma'naviy barkamollik mezoni.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar.

Kitobxonlik – ma'naviyatni shakllantiruvchi omil .

### **21-dars: Qonun ustuvorligi – jamiyat farovonligi (1 soat).**

Yoshlarning jamiyat talablari va qonunlarini bilishi hamda ularga roya etishi zarurligi. Huquqiy madaniyat – shaxs madaniyatining ajralmas qismi.

## *O'quv dasturi*

Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari – oliv qadriyat.

### **22-dars: O'tilgan mavzularni takrorlash (1 soat).**

#### **23-dars: Sir saqlash nima? (1 soat).**

Sirning turlari. Oila siri, shaxsiy sir, do'st siri, davlat siri va ularni saqlash odobi. Sir saqlashning o'ziga xos xususiyatlari.

#### **24-dars: Do'stlik qoidalari (1 soat).**

Do'stlik tushunchasi. Do'stlik tushunchasining keng qamrovli ekanligi. Ajododlarimiz ijodiy merosida do'stlikning ulug'lanishi. Yoshlik – olijanob tuyg'ularga boy fasl.

#### **25-dars: Ekologik madaniyat (1 soat).**

Olam va odam munosabatlari. Ekologik madaniyat – umuminsoniy madaniyatning uzviy qismi.

Ekologik ta'lif-tarbiya inson ma'naviyatini shakllantiradigan muhim omil sifatida.

Hayvonot va nabotot olamining betakrorligi, ularni saqlash zarurligi.

#### **26-27-dars: San'at – kundalik hayotimizda (2 soat).**

San'at har bir xalq, millatning ma'naviy-ruhiy qiyofasi. San'at turlari: xalq amaliy san'ati, badiiy adabiyot, musiqa, tasviri san'at, haykaltaroshlik, teatr, kino, televide niye va boshqalar.

Kino san'atining inson ongi va tafakkuri, jamiyat hayotiga ta'siri.

San'at asarlari va ularning milliyligi hamda umumbashariy xususiyatlari.

“Sharq taronalari” – boy ma'naviy tajribalarni umumlashtirish namunasi.

#### **28-dars: Ma'naviyatning shakllanishida tasviri san'atning o'rni (1 soat).**

Tasviri san'at – milliy ma'naviyatimiz rivojiga xizmat qiladi.

Amir Temurning aniq va haqqoniy portreti yaratilishida Prezident Islom Karimovning hissasi.

## *O'quv dasturi*

“Mustaqillik va ezgulik monumenti”, “Motamsaro ona” haykali, “Baxtiyor ona” haykali – zamonaviy monumental san’atimizning noyob namunasi.

Mustaqillik yillarda monumental san’at sohasida amalga oshirilgan ishlar.

### **29-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **30-dars: Insonparvarlik – o'zbek xalqi milliy ruhining ajralmas fazilati. (1 soat).**

Insonparvarlik tushunchasi. O'zbek xalqining bolajonligi, bag'rikengligi, mehr – oqibatliligi, mehmondo'stligi.

O'zbek oilasida bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlikning mujassamligi.

### **31-dars: Ma'naviyatning shakllanishida oilaning o'rni (1 soat).**

Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oilaning jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi. Ma'naviyatni shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni, vazifasi va ta'siri.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ota-onalik va farzandlik burchlari mustahkamlab qo'yilganligi.

### **32-33-dars: Axloq-odob – ma'naviyat negizi (2 soat).**

Axloq me'yirlari. Jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy hulq-atvor qoidalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Ezgulik va yovuzlik. Sha'n, qadr-qimmat, adovat va nohaqlik, burch va mas'uliyat tushunchalari.

Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan sharqona odob-axloq. Sharq va g'arb mamlakatlarida odob-axloqqa bo'lgan munosabat, ularning farqi.

### **34-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari”**

**8-sinf**

**(34 soat)**

## *O'quv dasturi*

### **I bob. Milliy g'oya jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar yo'lida birlashtiradi**

#### **1-dars: Milliy g'oya millatni, xalqni birlashtiradi (1 soat).**

Dunyoqarashi mustahkam millat – ogoh, o'z g'oyalarini tiniq anglagan millat. Milliy g'oya jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar yo'lida birlashtiradi.

#### **2-dars: Milliy g'oya va ma'naviy hayat (1 soat).**

Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari va ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelishi. Milliy g'oya – shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etgan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi yuksak tushunchalarni o'z ichiga olishi.

#### **3-4-dars: Yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovi (2 soat).**

Insonning eng ustuvor huquqlaridan biri – bu tinch yashash huquqidir. Tinchlikni ta'minash – davlat va jamiyat rivojlanishining eng muhim sharti ekanligi.

Yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovi.

Xalqimizning tinchlik sharoitidagi orzu-intilishlari, uni maqsad-muddaolari ro'yobga chiqishining kafolati deb bilishi.

#### **5-dars: Urush va uning oqibatlari (1 soat).**

Urush – taraqqiyot kushandasasi. Urush va uning oqibatlari. Urushda g'olib davlatlar bo'lishi mumkin, lekin baxtli odamlar va g'olib onalar bo'lmasligi haqida. "Bir kun janjal chiqqan uyda qirq kun baraka bo'lmaydi".

#### **6-dars: Vatan ravnaqi (1 soat).**

Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog'liq ekanligi.

Vatan ravnaqi g'oyasi har bir insonning taqdirida o'z ifodasini topishi. Vatan ravnaqi va farovonlik masalasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi. Vatan ravnaqi – xalq farovonligidir.

## *O'quv dasturi*

### **7-dars: Xalq farovonligi g'oyasi (1 soat).**

Xalq farovonligi – oliv saodat.

Xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligida aks etishi.

Yurtimizda xalq farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar.

### **8-dars: “Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun” (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot.

### **9-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **10 -11-dars: Komil inson g'oyasi (2 soat).**

Vatan taqdiri bugun unib-o'sib kelayotgan yosh avlodga, uning jismoniy va ma'naviy kamolotiga bog'liqligi.

Komil inson g'oyasi va milliy g'oyaning o'zaro uyg'unligi.

Barkamol avlod tarbiyasida davlatning ta'llim sohasidagi siyosatining o'rni va ahamiyati.

### **12-13-dars: Ijtimoiy hamkorliksiz taraqqiyot bo'lmaydi (2 soat).**

Ijtimoiy hamkorlik g'oyasi. Turli millat, irq, dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo'lidagi urinishlari. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar BMT, YUNESKO, AYESKO, YUNISEF bilan hamkorlik ishlari. Tinchlik va barqarorlik – xalqaro hamjamiyat bilan birlashtiruvchi vosita sifatida.

Ijtimoiy hamkorlik – har bir yurtdoshimizning manfaatlaridagi mushtaraklikdan hosil bo'lvchi umummilliy maqsad va harakat birligi sifatida.

Hamkorlik – iqtisodiy taraqqiyot garovi ekanligi.

### **14-dars: Millatlararo hamjihatlik g'oyasi (1 soat).**

Xalqimizning sabr-bardoshi – uning, ma'naviy boyligining manbalaridan biri sifatida.

Markaziy Osiyo xilma-xil dinlar, xalqlar va madaniyatlar tutashgan, tinchlik va totuvlik makoni sifatida.

Millatlararo totuvlik – umumbashariy qadriyat.

## *O'quv dasturi*

### **15-dars: O'zbekistonda barcha millatlar huquq va erkinliklarining kafolatlanishi (1 soat).**

O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tili, urf-odati va an'analari hurmat qilinishining ta'minlanishi.

O'zbekistonda barcha millatlarning huquq va erkinliklari ta'minlanganligi. Milliy bayramlar va urf-odatlar. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan milliy madaniy markazlar.

### **16-17-dars: Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi (2 soat).**

Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) ma'nnaviy qadriyatlarni mujassam etuvchi g'oya ekani.

Barcha dinlar ezzgulik g'oyalariga asoslanishi.

Dunyoviylik – dahriylik emas. O'z dini, o'z millatiga sodiq bo'lган inson hech qachon kam bo'lmaydi.

### **18-dars: O'zbekistonda vijdon erkinligining kafolatlanganligi (1 soat).**

O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonuni.

O'zbekistonda hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangani. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi.

### **19-dars: Diniy aqidaparastlik va ekstremizm – taraqqiyot dushmani (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot.

### **20-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

#### **II bob. Ma'nnaviyat – jamiyat va millat ravnaqining bosh omili va poydevori**

### **21-22-dars: Ma'nnaviyat – inson va jamiyat madaniyatining negizi (2 soat).**

Ma'nnaviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi

## **O'quv dasturi**

Milliy g'urur, milliy iftixor – har qanday ishimizning poydevori.  
Ma'naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir.  
Ma'naviyat boy bo'lsa, jamiyat ravnaq topadi.  
Ma'naviyat – insoniylikka olib boradigan yo'ldir.

### **23-24-dars: Ma'naviy barkamollik – insoniylik ziynati (2 soat).**

Insoniylik, to'g'rilik, qing'ir ishlardan o'zini tiyish, rostgo'ylik – haqiqatni gapirish – ma'naviy jasorat ekanligi. Kelajakni jasoratli odamlar quradi.

Ma'naviy sog'lom bo'lgan millatgina sog'lom avlodni tarbiyalay oladi. Insonning, xalqning, jamiyat va davlatning kuch-qudrati fuqarolarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi bilan belgilanishi.

### **25-dars: Vaqt (1 soat).**

Vaqtning qadri. Vaqtning madaniy, maishiy, ma'naviy ehtiyojlari. Vaqtning mohiyati: vaqt mezoni va uning kishi hayotidagi o'rni.

Vaqtdan unumli foydalanish: o'yin, sport, kitobxonlik, jamoat ishlari, bayramlar, teatr, kino, teleko'rsatuvlar, madaniy hordiq, to'garaklar va b. O'quvchining ijodiy bandligi masalalari.

Vaqtni qadrlash san'ati. "Bekorchining bo'sh vaqt – dushmanlarning ish vaqt" iborasi va uning mazmuni..

### **26-dars: Yoshlar va zamonaviylik (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot

### **27-dars: Globallashuv jarayonida “ommaviy madaniyat” havfi (1 soat).**

Globallashuvning ijobjiy va salbiy tomonlari. "Ommaviy madaniyat"ning ma'naviyatga tahdidi.

Hozirgi davr va moda. Modaning inson ehtiyojlariga mos bo'lishi. Modaga to'g'ri munosabatda bo'lish.

Kiyinish – inson ma'naviyatini ko'rsatuvchi mezon ekanligi. Kiynish odobi – bolaning ziynati.

Kiyimga munosabat – inson didi va farosatining muhim belgisi.

### **28-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

## *O'quv dasturi*

### **29-dars: Milliy bayramlar, an'analarimiz – tarixiy qadriyat (1 soat).**

O'zbek xalqi an'analar. Insonparvarlik, xalqparvarlik, bolajonlik. Zamonaqiy an'analar. Milliy an'analar va axloq-odob tushunchalari ma'naviy qadriyat sifatida.

### **30-dars: Navro'z tarixi (1 soat).**

Navro'z – yangilanish va ezzulik timсоли. Navro'z bayramining kelib chiqishi va mohiyati. Tarixiy manbalarda Navro'z haqida.

Navro'z bilan bog'liq urf-odat va marosimlar. Donishmandlar Navro'z haqida.

### **31-dars: Biz kimmiz, qanday buyuk zotlarning avlodimiz? (1 soat).**

Inson qadri – ulug', xotirasi boqiyidir. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanishi. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q ekanligi. Biz Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlarga vorisligimizdan faxrlanishimiz va ularga munosib bo'lishimiz zarurligi.

### **32-dars: Xotira va qadrlash kuni – o'zaro mehr-oqibat namunasi (1 soat).**

Xotira va qadrlash kuni nishonlanishining tarbiyaviy ahamiyati. Marhumlarni yod etish, atrofdagilarga mehr-muruvvat ko'rsatib, ularni qadrlab yashash zarurligi.

### **33-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **34-dars: Yakuniy va umumlashtiruvchi dars (1 soat).**

#### **“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” 9-sinf**

### **1-dars: Shu aziz Vatan – barchamizniki (1 soat).**

Xalqqa va Vatanga sadoqat ota-onaga sadoqatdan boshlanadi. O'z hayotini Vatan istiqboli, uning farovon kelajagi uchun bag'ishlab yashash har bir kishining insoniy va fuqarolik burchidir. Milliy tuyg'u – inson uchun tabiiy ekanligi.

## *O'quv dasturi*

### **2-3 dars: O'zlikni anglash – tarixni bilishdan boshlanadi (2 soat).**

Mustaqillik biz uchun – o'zligimizni anglash, biz ko'zlagan demokratik jamiyat barpo etishning garovidir.

Vatan oldidagi mas'uliyat. Milliy g'oya – Vatan ravnaqini belgilab beruvchi tamoyillardan biri.

Mamlakatimizda rivojlanayotgan erkin iqtisodiy faoliyat. Yurtimiz iqtisodiy qudratining ortishi – Vatan taraqqiyotining asosi.

O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

### **4-5-dars: Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi (2 soat).**

Dunyo mafkuraviy manzarasining murakkablashib borishi.

XXI asrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi. Jahonni mafkuraviy bo'lib olish va o'z ta'siriga tortishga urinishlar.

Markaziy Osiyo mintaqasida mafkuraviy jarayonlar. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash vazifalari. "Mintaqaviy xavfsizlikdan yalpi xavfsizlik sari" tamoyili.

### **6-7-dars: Mafkuraviy poligon tushunchasi (2 soat).**

Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega ekanligi.

Hayotiy milliy qadriyatlar, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam iroda bilan ma'naviy tahdidlarning barcha ko'rinishlariga qarshi turish mumkinligi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratik tamoyillarga asoslangan taraqqiyot.

Mafkuraviy kurash vositalari. Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash turli mafkuralarning asosiy maqsadi ekanligi.

### **8-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **9-10-dars: G'oyaviy bo'shliq va uning zararli oqibatlari (2 soat).**

G'oyaviy beqarorlik hukmron bo'lgan joyda mafkuraviy tahdidning kuchayishi. Hozirgi davrdagi mafkuraviy tahdidlar.

Mafkuraviy tahdidlar zamonaviy tajovuzkorlikning mafkuraviy ko'rinishi ekani. Globallashuv jarayonlari va uning jamiyat hayotiga ta'siri.

Milliy g'oya, mafkura sohasida qat'iy tamoyillarga ega bo'lishi zarurligi.

Qayerda-ki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qiladi.

## *O'quv dasturi*

### **11-dars: Mafkuraviy immunitet (1 soat).**

Mafkuraviy immunitet zarurati. Mafkuraviy immunitet va g'oyaviy immunitet shakllanish jarayonlarining o'ziga xos tomonlari. Mafkuraviy immunitetning asosiy sharti – yoshlarimiz qalbi va ongida milliy g'oya asosidagi dunyoqarashni shakllantirish

### **12-13-dars: Ona tili — millat ruhi (2 soat).**

Ona tili – ezgu fazilatlar manbai.

Tilning inson qalbiga ta'siri. O'z tilini yo'qotgan millat o'zligidan mahrum bo'lishi.

Til bilish ham – madaniyat.

O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtaсидаги руhiy bog'liqlik til orqali namoyon bo'lishi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni.

### **14-15-dars: Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi (2 soat).**

Xalqimizga xos milliy qadriyatlarning milliy g'oyada aks etishi.

Milliy istiqlol g'oyasi va umumbashariy qadriyatlar hamda sog'lom dunyoqarash uyg'unligi.

Xalqimizning, ajdodlarimizning insonparvarlik ruhidagi boy madaniy merosi.

### **16-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **17-18-dars: Taraqqiyotning o'zbek modeli (2 soat).**

Iqtisodiyotni isloh qilishning o'zbek modeli, uning o'ziga xos tomonlari. Islohotlarning mazmuni. Iqtisodiyotni isloh qilishning zarurati, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishning mohiyati.

### **19-20-dars: Bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili (2 soat).**

- Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi.
- Davlat bosh islohotchi.
- Qonun ustuvorligi.
- Kuchli ijtimoiy himoya.
- Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

### **21-dars: Bugungi islohotlar haqida suhbat (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot.

## *O'quv dasturi*

### **22-dars: Oila – inson ma'naviyatining beshigi (1 soat).**

Oila sog'lom bo'lsa – jamiyat mustahkam bo'ladi. Jamiyatning mustahkamligi mamlakat barqarorligini ta'minlaydi.

Oiladagi ma'naviy iqlimning shakllanishida axloq-odob munosabatlari.

### **23-24-dars: Mahalla – tarbiya maskani (2 soat).**

Mahallaning jamiyatda tutgan o'rni. Mahalla – insonlar o'rtasida birlik va hamjihatlikni qaror toptiruvchi muqaddas dargoh. Mahalla – o'z-o'zini boshqarishning milliy modeli sifatida.

Mahalla – demokratiya darsxonasi.

Mahallaning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi.

### **25-dars: Nazorat ishi (1 soat).**

### **26-dars: Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi (1 soat).**

Xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarning qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liqligi.

O'zbekistonda bepul umumiy ta'lim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqining kafolati.

### **27-dars: Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi (1 soat).**

Mustaqillik – nafaqat iqtisodiy, balki beqiyos ma'naviy imkoniyatlar manbайдир. Mamlakatimiz hayotida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligning namoyon bo'lishi.

Moddiy va ma'naviy hayot tamoyillarining o'zaro bog'liqligi.

### **28-dars: Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi (1 soat).**

Amaliy mashg'ulot

### **29-30-dars: Ma'naviy jasorat (2 soat).**

Inson qalbiga yo'l. Eng buyuk jasorat – bu ma'naviy jasorat. Ozod Sharafiddinov, Yahyo G'ulomovlarning hayot yo'li ma'naviy jasorat timsoli.

Zulfiya – o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasi.